

JAHON MAMLAKATLARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O`TISH TENDENSIYALARI VA O`ZIGA XOSLIKHLARI

Urunkov Numanjon Mo'ydinovich

PhD Namangan davlat universiteti

Iqtisodiyot fakulteti, Moliya

sohasida boshqaruv yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Nasrullahayev Omonulloxon Nodirjon o'g'li

E-mail: omonulloxon0408@gmail.com

Tel: +998949874707.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon mamlakatlarida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining asosiy yo'nalishlari, tendensiyalari va ularning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Hozirgi paytda yashil iqtisodiyotning global muammolarga yechim sifatida qanday xizmat qilayotgani, mamlakatlar kesimida amalga oshirilayotgan strategiyalar va jarayonlar orqali tahlil qilinadi. Quyidagi mamalakatlar misolida qanday yechimlar va ishlar olib borilayotgani ko'rib chiqiladi.

ТЕНДЕНЦИИ И ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ В СТРАНАХ МИРА

Аннотация: В данной статье будут проанализированы основные направления, тенденции и особенности процесса перехода к зеленой экономике в странах мира. То, как зеленая экономика в настоящее время служит решением глобальных проблем, анализируется с помощью стратегий и процессов, реализуемых в разных странах. На примере следующих стран будет рассмотрено, какие решения и над чем работают.

TRENDS AND PECULIARITIES OF THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY IN WORLD COUNTRIES

Abstract: This article analyzes the main directions, trends and their peculiarities of the transition to the green economy in world countries. At present, how the green economy serves as a solution to global problems is analyzed through strategies and processes being implemented in cross-country. On the example of the following countries, the solutions and works are considered.

Kalit so`zlar. yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, qayta tiklanadigan energiya, sanoat moslashuvi, xalqaro hamkorlik, texnologik tengsizlik.

Kirish. XXI asr global iqtisodiyotida ekologik barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish dolzarb muammolik jarayonlardan biriga aylandi. Iqtisodiy o'sishni saqlagan holda atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirni kamaytirish, nafaqat


rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar oldida turgan asosiy vazifalardan biridir, balki global muammodir. Shu munosabat bilan, “*yashil iqtisodiyot*” tushunchasi so‘nggi yillarda nafaqat ekologlar, balki iqtisodchilar, siyosatchilar va jamoatchilik tomonidan keng muhokama qilinmoqda. BMT ta’rifiga ko‘ra, yashil iqtisodiyot — bu odamlarning hayot sifatini yaxshilovchi, ijtimoiy adolatni ta’minlovchi va ekologik xavf-xatarlarga qarshi chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan iqtisodiy tizimdir.

Metodlar. Ushbu tadqiqotimizda “*Yashil iqtisodiyotga o‘tish tendentsiyalari va o‘ziga xosligi*”ga bir qancha jihatlar ko`rib chiqilgan. Bular asosan yashil iqtisodiyot tushunchasi, ishlab chiqarishda ekologik xavsizlikni hisobga olish, qayta tiklanadigan energiya kabi jihatlar maqolada alohida e`tirof etilgan.

Natijalar. Dunyo miqyosida yashil iqtisodiyot mavzusiga ko`p mamlakatlar tomonidan alohida e`tibor qaratilib kelinmoqda. Yashil iqtisodiyotga to`htaladigan bo`lsak bu iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanish jarayonida **atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga** yo‘naltirilgan iqtisodiy modeldir. **Ishlab chiqarishda ekologik xavfsizlikni hisobga olish** deganda ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni nazorat qilish va tabiiy muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko‘rish kabi chora tadbirlar tushuniladi. Qayta tiklanadigan energiya asosan bu **quyosh, shamol, suv, biomassa va geotermal issiqlik** kabi manbalardan olinadigan energiyadir. Bu manbalar tabiiy holda doim yangilanib turadi, shuning uchun ularni cheksiz darajada ishlatish va uzlusiz energiya olish imkonini beradi.

Yashil iqtisodiyot o‘z ichiga asosiy uch jihatni qamrab oladi.

Bular:



1-rasm. Yashil iqtisodiyotning uch jihatni.

(Muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

1. Yashil iqtisodiyotga o'tishning global tendensiyalari

Bugungi kunda ko'plab davlatlar yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha strategik rejalarini ishlab chiqmoqda. Quyida ayrim mintaqalar va davlatlar misolida bu tendensiyalarni ko'rib chiqamiz:

Yevropa Ittifoqi: "Yashil kelishuv" (Green Deal) strategiyasi doirasida 2050-yilgacha karbon neytral iqtisodiyotga o'tish rejalashtirilgan. Bu borada quyosh va shamol energetikasi, yashil transport, chiqindilarni qayta ishlash kabi sohalarga katta investitsiyalar yo'naltirilmoqda.

AQSh: So'nggi yillarda toza energiya va ekologik innovatsiyalar bo'yicha faol harakat qilmoqda. "Inflation Reduction Act" qonuni orqali yashil texnologiyalarga milliardlab dollar ajratilgan.

Xitoy: Global ekologik harakatlarning yetakchisiga aylanmoqda. Karbon emissiyasini 2030-yilgacha pasaytirish va 2060-yilgacha to'liq neytrallikka erishish rejasи mavjud. Elektr transport vositalari va quyosh panellari ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi.

Skandinaviya mamlakatlari: Shvetsiya, Norvegiya va Daniya yashil iqtisodiyotga o'tishda eng muvaffaqiyatli davlatlar qatorida. Ular energianing katta qismini qayta tiklanadigan manbalardan oladi va ekologik soliq siyosatini yuritadi.

2. Yashil iqtisodiyotning o'ziga xos jihatlari

Yashil iqtisodiyot modelining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Ekologik toza ishlab chiqarish: Asosan xomashyo, energiya va texnologiyalardan atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, resurslarni tejab, chiqindilarni kamaytirgan holda, zamonaviy va "yashil" usulda mahsulotni ishlab chiqarish jarayonidir.

Innovatsiyalar va fan-texnika taraqqiyoti: Yashil texnologiyalar, toza energiya, elektr transport vositalari va chiqindilarni qayta ishlash yo'nalishidagi ilmiy yutuqlar bu sohani jadallik bilan rivojlantirmoqda.

Xalqaro hamkorlik: Parij kelishuvi, COP konferensiyalari kabi xalqaro tashabbuslar yashil iqtisodiyotga o'tishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

3. Yashil iqtisodiyotga o'tishda duch kelinayotgan muammolar

Moliyaviy xarajatlar: Yashil iqtisodiyotga o'tish bu ekologik barqaror va kam uglerodli iqtisodiyot modeliga o'tishni anglatadi. Bu jarayon o'ziga xos bir qancha moliyaviy xarajatlarni tashkil etadi. Bular: energetika tizimini qayta tashkil etish (quyosh, shamol, gidro, biogaz stansiyalari), transport tizimida elektr transport vositalarini joriy etish (zaryad stansiyalari, yangi yo'llar), suv ta'minoti va chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini modernizatsiya qilish, yashil tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat subsidiyalari, qishloq xo'jaligida agroekologik dasturlarni moliyalashtirish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

Sanoat moslashuvi: Yashil iqtisodiyotga o'tish sanoatni ekologik jihatdan barqaror va kam uglerodli ishlab chiqarishga yo'naltirishni talab qiladi. Bu jarayon sanoatning turli tarmoqlarida sezilarli o'zgarishlarni, texnologik yangilanishni, va yangi ishlab chiqarish modellari joriy etilishini anglatadi. Bular: toza energiya manbalariga o'tish, energiyani tejash texnologiyalari, chiqindilarni qayta ishslash, yashil logistika kabi jihatlarni oz ichiga qamrab oladi.

Texnologik tengsizlik: Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida texnologik tengsizlik deganda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtaсидаги texnologik farqlar, resurslar va innovatsiyalarga bo'lgan tengsizlikni anglatadi. Bular: rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtaсидаги farq, tajriba va ilmiy imkoniyatlar, infratuzilma o'zgarishlarining kechikishi kabi jihatlar.

Xulosa. Yashil iqtisodiyot — bu zamonaviy dunyoda barqaror rivojlanishni ta'minlashning eng maqbul yo'nalishidir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiy model ekologik muammolarning oldini olish, iqtisodiy o'sishni saqlash va jamiyat farovonligini oshirishda samarali vositaga aylanmoqda. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko`rishimiz mumkinki "yashil iqtisodiyot"ga ekologik toza ishlab chiqarish, innovatsiya, sanoatni oqilona moslashtirish, xalqaro hamkorlik orqali erishishimiz mumkinligi ta`kidlab o'tildi. Har bir davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik sharoitlarini inobatga olgan holda bu yo'lda individual strategiyalarni ishlab chiqishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. International Energy Agency (IEA), World Energy Outlook 2023.
2. IRENA (2024). Renewable Capacity Statistics.
3. Global Carbon Project. (2024). Global CO₂ Emissions Report.
4. European Commission (2020). The European Green Deal.
5. UN Environment Programme. (2023). Green Economy Progress Report.
6. World Bank. (2022). Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development.
7. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC).
8. OECD. (2023). Green Growth Indicators.
9. "Inflation Reduction Act of 2022." United States Congress.